

TA'LIMDA YANGI PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARINI O'RNI

G.A. Mirboboyeva, N. Samatova  
Farg'ona Davlat texnika universiteti

**Annotasiya:** Ushbu ilmiy maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovasion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirishda pedagogic texnologiyalarni o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** pedagogika, innovasion texnologiyalar, o'qitish uslublari, ta'lim sifati, metod va vositalar, nazariy dars jarayonlari, amaliy dars jarayonlar, ilmiy yondashuv, o'qituvchi mahorati

**Аннотация:** В данной научной статье изложены сведения по вопросам развития совместной деятельности педагогов и обучающихся на основе выбора форм, методов и средств организации образовательного процесса с учетом взаимной совместимости форм, методов и средств.

**Ключевые слова:** педагогика, инновационные технологии, методы обучения, качество образования, методы и инструменты, теоретические процессы обучения, практические процессы обучения, научный подход, мастерство учителя

**Abstract :** This scientific article presents information on the development of joint activities of teachers and students based on the choice of forms, methods and means of organizing the educational process, taking into account the mutual compatibility of forms, methods and means.

**Key words:** Pedagogy, innovative technologies, teaching methods, quality of education, methods and tools, theoretical teaching processes, practical teaching processes, scientific approach, teacher skills

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga joriy etish samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim jarayoniga, jumladan, mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning zaruriy talabi hisoblanadi.

**Ta'lim tizimining modernizatsiyasi** – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishni ko'zda tutadi.

Lug'aviy jihatdan "**innovatsiya**" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovatsion") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovatsion" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir.


Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar hisoblanadi.

**Innovatsion ta'lim** – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo'ladi

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion o'qitish texnologiyalarni qo'llash quyidagi didaktik maqsadlarni ko'zda tutadi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirish, uning Davlat ta'lim standarti bilan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash samaradorligini oshirish;
- talabalarning kasbiy-pedagogik, metodik tayyorgarligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash;
- talabalarning innovatsion texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash va ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiga aylantirish orqali innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga zamin yaratish va xokazolar.



1-rasm Passiv metod

Bu metodda o'qituvchi yakka xokim sifatida dars o'tadi Bu metodda talaba faqat tinglovchi sifatida ishtirok etadilar.


Yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish oliy ta'limda talabalarni kasbiy tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, mutaxassislik fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bu esa talabalarning kasbiy mahoratlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ustuvor maqsad qilib belgilashni talab etadi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat

malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.




2-rasm Talabani bilim olish darajasi

Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida faol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, o'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, faol usullar va interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

**Munozara metodi** jarayonida yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo'libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o'zining biror narsani hal etish, mustaqillikda kattalar bilan teng xuquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir.



3-rasm Bahs-munozara usuli

Dars jarayonidagi bahs chog'ida o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo'lib harakat qiladi.



4-rasm Munozara metodi

Ana shu bahsda u o'z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarni dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro katta hurmat uyg'otadi. Bahs jarayonida har bir ta'lim oluvchining «shaxsiy fikri», o'z mavqeini ifodalash va asoslash malakasi yuksak qadrlanadi.

**Topshiriq metodining** ijobiy tomoni shundaki, unda ta'lim oluvchilar uchun yakka holda emas, guruh bilan birgalikda o'tilgan materialni qayta ko'rib chiqib, esga tushirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar bilmagan yoki yoddan chiqargan bilimlarini bir-birlaridan o'rganadilar.



5-rasm Topshiriq metodi

Mustaqil bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar o'quv semestri davomida ta'lim oluvchilar tomonidan amalga oshirilib borilsa, ta'lim oluvchilar materialni yodlariga tushirib, yakuniy nazoratlarni yaxshi topshirishlariga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashlarini rivojlantiruvchi yana bir samarali topshiriq turi – bu muammoli topshiriqlardir.

Muammolar echimi bo'yicha ishlash quyidagi tartibda bo'lishi mumkin.

1. Ta'lim oluvchilar guruhlarda ishlaydilar. Ularga umumiy echim, mustaqil qaror qabul qilishni talab etadigan muammoli matn yoki topshiriq beriladi.
2. Ta'lim oluvchilar muammo echimini muhokama qiladilar va birgalikda muammo echimi bo'yicha umumiy qarorga kelishga harakat qiladilar.
3. Keyin guruhlar bir-birlari bilan o'zaro fikr almashadilar.

Bunday turdagi topshiriqlar odatda qiziqarli muhokamalarga olib keladi, ta'lim oluvchilarning dunyoqarashi, mulohaza yuritish, o'z fikri va yondashuvini isbotlash, qaror qabul

qilish va umuman mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi faqat topshiriq shartlari bilan tanishtiradi, qolgan ishlarni esa ta'lim oluvchilar o'zlari bajarishadi.

Bunday vazifalarni bajarish uchun ta'lim oluvchilar auditoriyadan tashqari mustaqil izlanishlarni talab etiladi va shu bilan kasbiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga rag'batlantiriladi. Loyihaviy ishlar uchun mavzu va topshiriqlar hayotiy voqea, dalillar va namunalardan olinishi mumkin. Topshiriqlar turli shakllarda ishlab chiqarish va tashkil etilishi mumkin.

Xulosa.Ushbu ilmiy maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovasion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirishda pedagogic texnologiyalarni o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan Zero, davr talabi bo'yicha yosh mutaxassaslarni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, innovator, komil inson sifatida shakllanishida pedagogik texnologiyalarning asl maqsadi namoyon bo'ladi. Maqolada talabalarga innovasion texnologiyalardan o'qitish texnologiyalarni usullari ko'rsatib o'tilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1].Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.

[2].Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.

[3].Mirboboyeva G. A. QO 'LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O'RGANISH //YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.

[4].Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO 'YASHDA ISHLATILADIGAN BO 'YOQLAR HAQIDA MA'LUMOTLARNI O'RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307. [5].Mirboboyeva G. A. et al. ZIG 'IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.

[6]. M.G Abdusattorovna, UN Qosimjonovna Retro style in modeling women's clothing Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376 [7].Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov Davron Shamsiddin o'gli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academia globe: inderscience research, 4(03), 246–251. <https://doi.org/10.17605/osf.io/na6t4>

[8]. G.A. Mirboboyeva. (2025). "CHARM – MO'YNA KREATIV GRAFIKASI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVASION INTERFAOL METODLAR QO'LLASH. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(10), 1103–1108.

[9]. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 204-209.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-11

[10]. Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 405-409.

[11]. Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 445-451.

[12]. Nozimjonovna, O. I. (2022). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF MODERN CIRCULAR NEEDLE KNITTING MACHINES. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(06), 75-79.

